

# “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatida “Kimyo atamalarining izohli lug‘atini yaratish” mavzusida navbatdagi ilmiy seminar o‘tkazildi

// 20.06.2022

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/kimyo-atamalarini-izohli-lugatini-yaratish>



O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida e‘lon qilingan loyihalar tanlovining 44 turida filologiya, pedagogika va psixologiya fanlari yo‘nalishi bo‘yicha “Kimyo atamalarining izohli lug‘atini yaratish” mavzusida bajarilishi bir yilga mo‘ljallangan amaliy loyihalar tanlovi doirasida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazining tilshunos olimlari, “O‘zkimyosanoat” AJ xodimlari va kimyo sohasi mutaxassislardan iborat ilmiy jamoa tomonidan amaliy loyiha tayyorlandi. Mazkur loyiha natijalari kimyo sanoatiga oid atamalarni davlat tilida yagona shaklda qo‘llash, soha uchun qo‘llanmalar, texnik reglament, kasb standartlari, yo‘riqnoma va boshqa ilmiy-texnik hujjatlarni davlat tilida sifatli ishlab chiqilishiga xizmat qiladi.



Ilmiy seminar doirasida "Kimyo atamalarining izohli lug'atini yaratish" mavzusida bajarilishi bir yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar bo'yicha soha mutaxassislarining takliflari tinglandi. Bajarilishi rejalashtirilgan vazifalar ijrosi, istiqboldagi rejalar muhokama qilindi. Online tarzda o'tkazilgan ilmiy seminarda tarmoq korxonalarining mas'ul xodimlari ham ishtirok etdi hamda ish jarayonida kimyo sohasi bo'yicha o'zbek tilida muqobilini topmagan atamalar ro'yxatini shakllantirish vazifasi yuklatildi.



Shu o'rinda, birinchi o'zbek kimyogar olimasi Zarifa Saidnosirovaning "Oybegim mening" kitobida yozib qoldirgan xotiralarini eslash o'rinli: *"Men 1930-yildan boshlab, o'rta maktablar uchun kimyodan darslik yozishni o'ylay boshladim. Buning uchun eng avval kimyo atamalarini ishlab chiqish kerak edi. Shuning uchun men atamalar bilan shug'ullana boshladim va ayni zamonda darslik yozishga ham hozirlik ko'rdim. Rabfaklar va texnikumlar uchun yozdigim "Anorganik kimyo" darsligi bosilib chiqdi. Hajmi 18 bosma toboq bo'lib, lotin harfi ila chop etilgan. Bu kimyo fanidan o'zbek tilida chop etilgan birinchi darslik edi"*. Olima tomonidan amalga oshirilgan ishlar tahsinga sazovor, albatta. "Kimyo atamalarining izohli lug'ati"ni yaratishda ushbu tajribalardan, albatta, samarali foydalanamiz.

**Kumush Abdusalamova**